

OMMAVIY OFERTA

Mazkur ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ommaviy oferta matni («Oferta» va/yoki «Shartnoma») Aksept qilingan paytda amalda bo'ladi va «Mega School» o'quv markazi tomonidan yangi tahririni _____ veb-saytida («Sayt») e'lon qilish orqali bir tomonlama o'zgartirilishi mumkin.

«Mega School» o'quv markazi bo'lajak Tinglovchilar va ularning qonuniy vakillarini Ma'muriyatning ta'lim xizmatlarini ko'rsatish haqidagi taklifi bilan tanishishga hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 365, 367 va 370-moddalari, «Ta'lim to'g'risida»gi, «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi va «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq quyidagi shartlar asosida mazkur Shartnomani tuzishga taklif etadi.

1. OFERTANING UMUMIY QOIDALARI VA SHARTNOMA ATAMALARI

1.1. Mazkur Ofertada quyidagi atamalar qo'llaniladi:

Oferta — mazkur Shartnomani tuzish haqidagi taklif. Shartnoma Ofertani so'zsiz qabul qilish (uni Aksept qilish) orqali tuziladi.

Oferta aksepti — Ofertaning 1.5-bandida ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirish orqali uni to'liq va so'zsiz qabul qilish. Aksept Shartnomani tuzadi.

Ma'muriyat / O'quv markazi — _____ (STIR: _____), yuridik manzili: _____, shuningdek «Mega School» nomi ostida faoliyat yurituvchi uning filiallari. O'quv markazi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda berilgan ruxsat hujjati (_____) asosida amalga oshiradi.

Foydalanuvchi / Buyurtmachi / Tinglovchi — Saytga Shartnomani Aksept qilish maqsadisiz, faqat u bilan tanishish uchun kirgan jismoniy shaxs («Foydalanuvchi»); Shartnomani Aksept qilib, O'quv markazi xizmatlarini o'zi yoki boshqa shaxs uchun buyurtma qilgan va ular haqini to'laydigan shaxs («Buyurtmachi»); Shartnoma bo'yicha xizmatlarni bevosita oladigan shaxs («Tinglovchi»). Voyaga yetgan Tinglovchi Buyurtmachi ham bo'lishi mumkin.

Kirish testi — Tinglovchining tanlangan yo'nalish bo'yicha bilim darajasini aniqlashga qaratilgan bepul tartib (yozma test va/yoki og'zaki suhbat).

Sinov darsi — Tinglovchi O'quv markazining ta'lim uslubi, o'qituvchi va guruh bilan tanishishi uchun o'tkaziladigan birinchi bepul mashg'ulot.

Kurs — Buyurtmachi tanlagan va O'quv markazi bilan kelishilgan yo'nalish (xorijiy tillar, axborot texnologiyalari, bolalar uchun rivojlantiruvchi mashg'ulotlar, imtihonlarga tayyorlov va boshqalar) bo'yicha O'quv markazi dasturi asosida muayyan muddatda, belgilangan miqdor va formatdagi mashg'ulotlardan iborat ta'lim xizmatlari majmui.

Guruh — bir xil yoki yaqin darajadagi Tinglovchilardan tuzilgan va yagona jadval asosida shug'ullanadigan o'quv guruhi. Ta'lim formati (guruh, mini-guruh, individual) va guruhdagi Tinglovchilar soni Narxlar ro'yxatida belgilanadi.

Narxlar ro'yxati — Kurslar narxi va asosiy shartlari ko'rsatilgan, Saytda va/yoki O'quv markazi filiallarida e'lon qilinadigan ro'yxat (preyskurant).

Tomonlar / Tomon — Shartnomada O‘quv markazi hamda Buyurtmachi va/yoki Tinglovchi birgalikda yoki alohida.

Sayt — O‘quv markazining internet tarmog‘ida _____ domen nomi ostida joylashgan veb-sayti va uning tarkibidagi barcha sahifalar.

1.2. Mazkur Shartnomada ushbu bo‘limda ko‘rsatilmagan atamalar ham qo‘llanilishi mumkin. Bunday holda atama Shartnoma matniga, u yetarli bo‘lmasa, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ish muomalasi odatlariga muvofiq talqin qilinadi.

1.3. Mazkur Shartnoma O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi.

1.4. Ofertani Aksept qilgan shaxs O‘quv markazi ko‘rsatadigan xizmatlarga nisbatan Buyurtmachining barcha huquq va majburiyatlariga ega bo‘ladi.

1.5. Ofertada ko‘rsatilgan shartlarni bajarishga qaratilgan quyidagi harakatlardan har biri Ofertaning to‘liq va so‘zsiz Aksepti hisoblanadi:

- Kurs haqini to‘liq yoki qisman to‘lash;
- O‘quv markazi filialida yoki Ma‘muriyat bilan boshqa usulda bog‘lanib, Kursga yozilish (ro‘yxatdan o‘tish);
- Tinglovchining shaxsga doir ma‘lumotlarini (F.I.Sh., tug‘ilgan sana, telefon raqami) Kursga yozilish uchun O‘quv markaziga taqdim etish;
- Kursning pullik mashg‘ulotlariga qatnashishni boshlash;
- Buyurtmachining O‘quv markazi xizmatlaridan foydalanish niyatini tasdiqlovchi boshqa harakatlar.

1.6. Ofertani Aksept qilishdan oldin Buyurtmachi quyidagilarni tasdiqlaydi:

- Shartnomaning har bir bandini diqqat bilan o‘qib chiqqan, tushungan va hech qanday e‘tirozsiz qabul qilgan;
- Sayt mazmuni, Kurslar narxi va Ma‘muriyat bilan bog‘lanish usullari bilan tanishgan;
- Shartnomani o‘z xohish-irodasi bilan, hech qanday majburlovsiz qabul qilgan;
- O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga muvofiq to‘liq muomala layoqatiga ega. Tinglovchi voyaga yetmagan bo‘lsa, Buyurtmachi sifatida uning ota-onasi, vasiysi, homiysi yoki boshqa qonuniy vakili ish ko‘radi.

1.7. Saytdan foydalanib yoki O‘quv markazi bilan boshqa har qanday usulda bog‘lanib, Foydalanuvchi Oferta shartlariga hamda o‘zi taqdim etgan shaxsga doir ma‘lumotlarning mazkur Shartnomaning 9-bo‘limida belgilangan tartibda qayta ishlanishiga rozilik bildiradi.

1.8. Shartnoma Aksept qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi va Tomonlar o‘z majburiyatlarini to‘liq bajargunga qadar amal qiladi.

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Mazkur Shartnomaga asosan O‘quv markazi Tinglovchiga Kirish testi natijalariga ko‘ra Buyurtmachi tanlagan va O‘quv markazi bilan kelishilgan Kurs bo‘yicha ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatadi, Buyurtmachi esa ushbu xizmatlar haqini Narxlar ro‘yxati va Shartnoma shartlariga muvofiq to‘laydi.

2.2. Mashg'ulotlar O'quv markazi filiallarida (oflayn) o'tkaziladi. O'quv markazi Tomonlar kelishuviga ko'ra ayrim Kurslar yoki mashg'ulotlarni masofaviy (onlayn) shaklda ham tashkil etishi mumkin.

2.3. Kurs davomiyligi, oydagi mashg'ulotlar soni, bitta mashg'ulot vaqti va ta'lim formati Narxlar ro'yxatida ko'rsatiladi yoki Kursga yozilish vaqtida Ma'muriyat tomonidan ma'lum qilinadi.

2.4. Mazkur Shartnoma O'quv markazi tomonidan bir tomonlama o'zgartirilishi mumkin. O'zgarishlar haqidagi xabar Saytda va/yoki O'quv markazi filiallarida e'lon qilinadi. Yangi tahrir, agar unda boshqacha ko'rsatilmagan bo'lsa, Saytda e'lon qilingan kundan kuchga kiradi va haqi avval to'langan davr uchun Buyurtmachining ahvolini yomonlashtirmaydi.

2.5. Shartnomaning amaldagi tahriri bilan muntazam tanishib borish Buyurtmachining majburiyati hisoblanadi. Yangi tahrir kuchga kirganidan keyin xizmatlardan foydalanishni davom ettirish Buyurtmachining unga roziligini bildiradi.

3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. O'quv markazi quyidagilarga majbur:

3.1.1. Shartnoma va haqi to'langan Kurs shartlariga muvofiq ta'lim xizmatlarini sifatli ko'rsatish.

3.1.2. Mashg'ulotlarni tasdiqlangan jadval asosida, Narxlar ro'yxatida belgilangan miqdor va davomiylikda o'tkazish.

3.1.3. Mashg'ulotlarga tegishli malakaga ega o'qituvchilarni jalb etish.

3.1.4. Kurs boshlanishidan oldin bepul Kirish testini o'tkazish va Tinglovchini o'z darajasiga mos guruhga joylashtirish.

3.1.5. Tinglovchini Kurs dasturida nazarda tutilgan o'quv materiallari bilan ta'minlash, agar Narxlar ro'yxatida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa.

3.1.6. Dars jadvali, o'qituvchi yoki mashg'ulot joyi o'zgargani haqida Buyurtmachini oldindan xabardor qilish.

3.1.7. Har oy oraliq nazorat o'tkazish va uning natijalari haqida Buyurtmachiga (voyaga yetmagan Tinglovchining ota-onasi yoki qonuniy vakiliga) ma'lumot berish.

3.1.8. Mashg'ulotlar uchun xavfsiz va qulay sharoit yaratish.

3.1.9. Tinglovchi va Buyurtmachining shaxsga doir ma'lumotlari maxfiyligini ta'minlash.

3.2. O'quv markazi quyidagi huquqlarga ega:

3.2.1. Tinglovchining davomati, uy vazifalarini bajarishi va o'zlashtirishini muntazam kuzatib borish.

3.2.2. Ta'lim xizmatlari hajmini kamaytirmagan holda dars jadvaliga o'zgartirishlar kiritish.

3.2.3. O'qituvchini Buyurtmachini xabardor qilgan holda teng malakali boshqa o'qituvchiga almashtirish.

3.2.4. Guruhdagi Tinglovchilar soni Narxlar ro'yxatida belgilangan eng kam miqdordan kamayib ketganda guruhni boshqa guruh bilan birlashtirish yoki Tinglovchiga shu darajadagi boshqa guruh, vaqt yoki filialni taklif etish. Taklif qabul qilinmasa, o'tkazilmagan mashg'ulotlar uchun to'langan mablag' Buyurtmachiga Shartnomaning 6-bo'limiga muvofiq qaytariladi.

3.2.5. Kurs haqi o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda Buyurtmachini oldindan ogohlantirib, to'lov amalga oshirilgunga qadar Tinglovchini mashg'ulotlarga qo'ymaslik.

3.2.6. Kirish testidan o'tmagan shaxsga Kurs bo'yicha xizmat ko'rsatishni rad etish yoki unga darajasiga mos boshqa Kursni taklif qilish.

3.2.7. Tinglovchi ichki tartib qoidalarini (3.3.7-band) qo'pol ravishda yoki muntazam buzganda, Buyurtmachini yozma ravishda ogohlantirgandan keyin Shartnomani bir tomonlama bekor qilish. Bunda o'tkazilmagan mashg'ulotlar uchun to'langan mablag' Shartnomaning 6-bo'limiga muvofiq qaytariladi.

3.2.8. Kurslar narxini o'zgartirish. Yangi narxlar Saytda e'lon qilinganidan kamida 30 (o'ttiz) kalendar kun o'tgach kuchga kiradi va haqi avval to'langan davrga ta'sir qilmaydi.

3.2.9. Tinglovchining yutuqlari (masalan, imtihon natijalari) haqidagi ma'lumotni, shuningdek uning surati yoki videotasvirini reklama maqsadida faqat Buyurtmachining alohida roziligi bilan e'lon qilish.

3.3. Buyurtmachi / Tinglovchi quyidagilarga majbur:

3.3.1. Aksept qilish va to'lovni amalga oshirishdan oldin mazkur Oferta shartlari va Kurslar narxi bilan tanishib chiqish.

3.3.2. Kurs haqini Shartnomaning 6-bo'limida belgilangan muddat va tartibda to'lash.

3.3.3. Mashg'ulotlarga uzrli sababsiz qoldirmasdan va kechikmasdan qatnashish, uy vazifalarini o'z vaqtida bajarish.

3.3.4. Kurs o'quv rejasini vijdonan va to'liq o'zlashtirish.

3.3.5. O'quv markazi bergan o'quv-uslubiy materiallarni uchinchi shaxslarga bermaslik va ulardan tijorat maqsadida foydalanmaslik.

3.3.6. O'quv markazining jihozlari, o'quv vositalari va boshqa mol-mulkiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish; Tinglovchi aybi bilan yetkazilgan zararni qonunchilikda belgilangan tartibda qoplash.

3.3.7. O'quv markazining ichki tartib qoidalariga rioya qilish. Xususan, O'quv markazi hududida baqirish va shovqin solish, chekish (shu jumladan elektron sigaretlar), janjal va mushtlashuvlarda qatnashish, boshqa Tinglovchilar va xodimlarni kamsitish, haqorat qilish, qo'pollik va behayo so'zlar ishlatish, qurol yoki xavfli buyumlarni olib kirish, shuningdek bezorilik alomatlarini bo'lgan boshqa harakatlar man etiladi.

3.3.8. Mashg'ulot vaqtida telefon, quloqchin va boshqa qurilmalardan o'qituvchining ruxsatisiz foydalanmaslik, boshqa Tinglovchilarning diqqatini chalg'itmaslik.

3.3.9. Mashg'ulotni qoldirish yoki o'qishni to'xtatish haqida Ma'muriyatni oldindan xabardor qilish.

3.3.10. O'quv markaziga ishonchli ma'lumotlar taqdim etish, ular o'zgarganda (masalan, telefon raqami) Ma'muriyatga xabar berish.

3.3.11. Bolalar kurslarida voyaga yetmagan Tinglovchining mashg'ulotlarga o'z vaqtida kelishini va mashg'ulotdan keyin olib ketilishini ta'minlash.

3.3.12. Shartnoma va haqi to'langan Kurs shartlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

3.4. Buyurtmachi / Tinglovchi quyidagi huquqlarga ega:

3.4.1. Bepul Kirish testi va bepul Sinov darsidan o'tish.

3.4.2. Ta'lim jarayoni va xizmatlar yuzasidan O'quv markazi xodimlariga murojaat qilish.

3.4.3. Tinglovchining bilimi, ko'nikmalari, davomati va baholash mezonlari haqida to'liq va ishonchli ma'lumot olish.

3.4.4. Mashg'ulot vaqtida ta'lim jarayoni uchun zarur bo'lgan O'quv markazi mol-mulkidan foydalanish.

3.4.5. Uzrli sabab bilan qoldirilgan mavzuni Shartnomaning 4.4-bandiga muvofiq qo'shimcha maslahat mashg'ulotida o'zlashtirish.

3.4.6. Shartnomaning 4.5-bandiga muvofiq o'qishni vaqtincha to'xtatib turish («muzlatish»).

3.4.7. Shartnomani istalgan vaqtda bir tomonlama bekor qilish va Shartnomaning 6-bo'limiga muvofiq o'tkazilmagan mashg'ulotlar uchun to'langan mablag'ni qaytarib olish.

4. XIZMATLARNI KO'RSATISH TARTIBI

4.1. Kursga yozilishdan oldin Tinglovchi bepul Kirish testidan o'tadi. Test natijasiga ko'ra O'quv markazi Tinglovchini tegishli darajadagi guruhga joylashtiradi. Bolalar uchun rivojlantiruvchi kurslarda Kirish testi suhbat shaklida o'tkazilishi mumkin.

4.2. Mashg'ulotlar tasdiqlangan jadval asosida, Narxlar ro'yxatida ko'rsatilgan miqdor va davomiylikda o'tkaziladi. Mashg'ulot O'zbekiston Respublikasida belgilangan bayram yoki dam olish kuniga to'g'ri kelsa, u boshqa kunga ko'chiriladi yoki shu to'lov davri ichida qo'shimcha mashg'ulot bilan qoplanadi.

4.3. O'quv markazi aybi bilan (masalan, o'qituvchi kasal bo'lganda) o'tkazilmagan mashg'ulot boshqa vaqtga ko'chiriladi. Ko'chirishning imkoni bo'lmasa, mashg'ulot narxi keyingi to'lovga hisoblanadi yoki Buyurtmachiga qaytariladi.

4.4. Tinglovchi aybi bilan qoldirilgan mashg'ulotlar qayta o'tkazilmaydi va ularning narxi qaytarilmaydi. Uzrli sabab (kasallik, oilaviy holat va h.k.) bilan qoldirilgan mavzuni Tinglovchi Ma'muriyatni oldindan xabardor qilgan holda o'qituvchi bilan kelishilgan vaqtda qo'shimcha maslahat mashg'ulotida o'zlashtirishi mumkin.

4.5. Buyurtmachi uzrli sabab (kasallik, safar va h.k.) bilan Ma'muriyatga kamida 1 (bir) ish kuni oldin yozma ariza berib, Kurs davomida bir marta 1 (bir) oygacha muddatga o'qishni «muzlatishi» mumkin. Muzlatish davriga to'g'ri kelgan va haqi to'langan mashg'ulotlar Tinglovchi o'qishni davom ettirganda hisobga olinadi. Muzlatish muddati tugagach, Tinglovchi imkon qadar o'z guruhiga yoki shu darajadagi boshqa guruhga joylashtiriladi.

4.6. Tinglovchi Ma'muriyat bilan kelishgan holda, bo'sh o'rin mavjud bo'lsa, boshqa guruh, vaqt yoki filialga o'tishi mumkin.

4.7. Kursning har bir darajasi (bosqichi) davomiyligi Kurs dasturida belgilanadi. Tinglovchi joriy darajani yakunlab, yakuniy nazoratdan muvaffaqiyatli o'tgach, keyingi darajaga o'tadi.

4.8. O'quv markazi Tinglovchining muvaffaqiyatli o'qishi uchun barcha zarur choralarni ko'radi. Biroq ta'lim natijasi Tinglovchining davomati, mustaqil ishlashi va shaxsiy sa'y-harakatlariga ham bog'liq bo'lgani sababli O'quv markazi milliy va xalqaro imtihonlarda (IELTS, SAT, CEFR va

boshqalar) muayyan ball olinishini hamda ta'lim muassasalariga (shu jumladan Prezident maktablari va oliy ta'lim muassasalariga) qabul qilinishni kafolatlamaydi.

4.9. Xizmatlar har bir to'lov davri yakunida ko'rsatilgan hisoblanadi, bajarilgan ishlar dalolatnomasi tuzilmaydi. Agar Buyurtmachi to'lov davri tugaganidan keyin 10 (o'n) kalendar kun ichida xizmatlar sifati yuzasidan asoslantirilgan yozma e'tiroz bildirmasa, xizmatlar to'liq hajmda va lozim darajada ko'rsatilgan va qabul qilingan hisoblanadi.

4.10. Onlayn mashg'ulotlarda Buyurtmachi Tinglovchini zarur texnik vositalar (kompyuter yoki smartfon, barqaror internet aloqasi) bilan ta'minlaydi. Buyurtmachi tomonidagi texnik nosozliklar sababli o'tkazib yuborilgan onlayn mashg'ulotlar Tinglovchi aybi bilan qoldirilgan hisoblanadi.

5. SERTIFIKATLAR

5.1. Sertifikat turlari

5.1.1. Kursni yoki uning darajasini muvaffaqiyatli tamomlagan Tinglovchiga «Mega School» sertifikati beriladi.

- Sertifikat Tinglovchining tegishli Kurs yoki darajani tamomlaganini tasdiqlaydi.
- **Muhim:** «Mega School» sertifikati ta'lim to'g'risidagi davlat namunasidagi hujjat hisoblanmaydi va xalqaro imtihon sertifikati o'rini bosmaydi. U Tinglovchining ta'limdagi yutuqlarini qayd etish uchun mo'ljallangan.

5.1.2. Milliy va xalqaro imtihonlar (IELTS, SAT, CEFR va boshqalar) ularni o'tkazishga vakolatli tashkilotlar tomonidan o'tkaziladi.

- O'quv markazi Tinglovchini ushbu imtihonlarga tayyorlaydi, biroq ularning sertifikatlarini bermaydi.
- Imtihon topshirish to'lovi Kurs narxiga kirmaydi va Tinglovchi tomonidan imtihon tashkilotchisiga alohida to'lanadi.

5.2. «Mega School» sertifikatini olish shartlari

5.2.1. Sertifikat olish uchun Tinglovchi:

- Kurs (daraja) mashg'ulotlarining kamida 80 (sakson) foiziga qatnashishi;
- Kurs dasturida nazarda tutilgan majburiy topshiriqlarni bajarishi;
- yakuniy nazoratdan muvaffaqiyatli o'tishi lozim.

5.2.2. Yakuniy nazorat natijalari va sertifikat berish muddati haqida Ma'muriyat Tinglovchiga ma'lum qiladi.

5.3. Yakuniy nazoratni o'tkazish qoidalari

5.3.1. Yakuniy nazoratdan oldin Tinglovchi talab qilinganda shaxsini tasdiqlovchi hujjatni (ID-karta, pasport yoki tug'ilganlik haqidagi guvohnoma) ko'rsatadi.

5.3.2. Nazorat davomida Tinglovchi imtihon oluvchining ko'rsatmalariga rioya qiladi, tinchlik va tartibni saqlaydi.

5.3.3. Nazorat vaqtida O'quv markazi bermagan har qanday yordamchi materiallar, jumladan kitoblar, yozuvlar, mobil telefonlar, aqlli soatlar, quloqchinlar va boshqa elektron qurilmalardan foydalanish man etiladi.

5.3.4. Nazorat vaqtida boshqa Tinglovchilar bilan gaplashish, materiallar yoki ma'lumot almashish, imtihon oluvchining ruxsatisiz o'rnidan turib ketish taqiqlanadi.

5.3.5. Ushbu qoidalar buzilganda nazorat natijasi bekor qilinishi va Tinglovchiga nazoratni qayta topshirishning boshqa muddati belgilanishi mumkin.

6. TO'LOV TARTIBI VA SHARTLARI

6.1. Xizmatlar (Kurs) narxi O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi — so'mda belgilanadi.

6.2. Kurs narxi to'lov amalga oshirilgan kunda amalda bo'lgan Narxlar ro'yxatiga muvofiq belgilanadi.

6.3. Kurs haqi oyma-oy, oldindan — navbatdagi to'lov davrining birinchi mashg'ulotiga qadar to'lanadi. Buyurtmachi Kurs haqini bir necha oy uchun oldindan to'lashi ham mumkin.

6.4. To'lov O'quv markazi filiallarida naqd pul yoki bank kartalari orqali, shuningdek O'zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi to'lov tizimlari yoki bank o'tkazmasi orqali amalga oshiriladi. To'lovni tasdiqlovchi chek Buyurtmachiga qonunchilikda belgilangan tartibda beriladi.

6.5. Yuridik shaxslar tomonidan xodimlar yoki boshqa shaxslarning o'qishi uchun to'lov alohida tuziladigan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

6.6. Chegirma va aksiyalar shartlari Saytda yoki O'quv markazi filiallarida alohida e'lon qilinadi. Aksiya shartlarida boshqacha ko'rsatilmagan bo'lsa, chegirmalar jamlanmaydi.

6.7. Pul mablag'larini qaytarish tartibi:

- Buyurtmachi Shartnomani istalgan vaqtda bekor qilish haqida Ma'muriyatga yozma ariza berishi mumkin;
- bunda haqi to'langan, biroq ariza berilgan kungacha o'tkazilmagan mashg'ulotlar narxi O'quv markazining amalda qilgan xarajatlari (jumladan Tinglovchiga berilgan o'quv materiallari narxi) chegirilgan holda qaytariladi;
- ariza berilgan kungacha o'tkazilgan mashg'ulotlar narxi, jumladan Tinglovchi aybi bilan qoldirilgan mashg'ulotlar narxi qaytarilmaydi;
- mablag' ariza berilgan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida to'lov qaysi usulda amalga oshirilgan bo'lsa, shu usulda yoki Buyurtmachi ko'rsatgan bank hisobvarag'iga qaytariladi.

6.8. To'lov muddati o'tkazib yuborilganda O'quv markazi Shartnomaning 3.2.5-bandida nazarda tutilgan choralarni ko'rishga haqli.

6.9. O'quv markazi Tinglovchini rag'batlantirish maqsadida Narxlar ro'yxatida ko'rsatilmagan qo'shimcha imkoniyatlar (masalan, tadbirlar, qo'shimcha mashg'ulotlar) taqdim etishi mumkin. Ular Kurs narxiga kirmaydi va O'quv markazi ularni taqdim etishni istalgan vaqtda to'xtatishga haqli.

7. FORS-MAJOR

7.1. Tomonlar Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun, agar bu yengib bo'lmaydigan kuch holatlari, ya'ni favqulodda va muqarrar vaziyatlar, jumladan urush harakatlari, fuqarolik tartibsizliklari, epidemiyalar, karantin cheklovlari, yong'inlar, zilzilalar, suv toshqinlari va boshqa tabiiy ofatlar, elektr ta'minoti yoki internet aloqasidagi uzilishlar, shuningdek davlat organlarining majburiyatlarni bajarishga to'sqinlik qiluvchi yoki uni imkonsiz qiluvchi hujjatlari natijasida yuzaga kelgan bo'lsa va Tomonlar bunday holatlarni oldindan ko'ra bilmagan va oldini ololmagan bo'lsa, javobgar bo'lmaydi.

7.2. Bunday holatlar Shartnomada belgilangan muddatlarda majburiyatlarni bajarishga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, ushbu muddatlar tegishli holatlar amal qilgan davrga uzaytiriladi. O'tkazilmagan mashg'ulotlar holatlar tugaganidan keyin o'tkaziladi yoki Tomonlar kelishuviga ko'ra onlayn shaklda tashkil etiladi.

7.3. Fors-major holatlari yuzaga kelganda Ma'muriyat bu haqda Saytda e'lon qiladi va/yoki Buyurtmachiga telefon, SMS yoki messenger orqali xabar beradi.

7.4. Fors-major holatlari yuzaga kelgani haqida xabar bermaslik yoki kechikib xabar berish Tomonni ushbu holatlarga javobgarlikdan ozod qilish asosi sifatida tayanish huquqidan mahrum qiladi.

8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

8.1. Shartnomani tuzish, talqin qilish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq barcha nizolar Tomonlar tomonidan muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

8.2. Buyurtmachi o'z e'tiroz va talablarini O'quv markazi filialida yozma ariza shaklida yoki _____ elektron pochta manziliga yuborishi mumkin. O'quv markazi murojaatni olingan kundan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kun ichida ko'rib chiqadi va javob beradi.

8.3. Muzokaralar yo'li bilan hal qilinmagan nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda sudda ko'rib chiqiladi.

9. YAKUNIY QOIDALAR

9.1. Buyurtmachi Ofertani Aksept qilish orqali o'zining va (voyaga yetmagan Tinglovchining qonuniy vakili sifatida) Tinglovchining shaxsga doir ma'lumotlari (F.I.Sh., tug'ilgan sana, telefon raqami, davomat va ta'lim natijalari) O'quv markazi tomonidan Shartnomani bajarish, ta'lim jarayonini tashkil etish va Buyurtmachini xabardor qilish (shu jumladan SMS va messengerlar orqali) maqsadida «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq yig'ilishi, tizimlashtirilishi, saqlanishi va qayta ishlanishiga rozilik beradi. O'quv markazi ushbu ma'lumotlarni qonunchilikda nazarda tutilgan hollardan tashqari uchinchi shaxslarga bermaydi.

9.2. Buyurtmachi shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashga bergan roziligini Ma'muriyatga yozma ariza berib qaytarib olishi mumkin. Bunda Shartnomani bajarishning imkoni bo'lmasa, Shartnoma bekor qilinadi va hisob-kitoblar Shartnomaning 6.7-bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

9.3. Kursga yozilish vaqtida O'quv markazi Tinglovchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatni (pasport, ID-karta yoki tug'ilganlik haqidagi guvohnoma) ko'rsatishni so'rashi mumkin.

9.4. O'quv markazi Buyurtmachi va Tinglovchi ro'yxatdan o'tishda taqdim etgan ma'lumotlarning mazmuni va ishonchliligi uchun javobgar emas. Taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchliligi uchun Buyurtmachi javobgar hisoblanadi.

9.5. Tomonlar Shartnoma shartlarini bajarishga to'sqinlik qiluvchi qiyinchiliklar haqida bir-birini zudlik bilan xabardor qilishga majbur.

9.6. Tomonlar Shartnomani bajarish jarayonida o'zlariga ma'lum bo'lgan, qonun bilan qo'riqlanadigan sir (shu jumladan tijorat siri) maqomiga ega har qanday ma'lumotning maxfiyligini saqlashni kafolatlaydi.

9.7. Shartnomada nazarda tutilgan barcha shartlar, huquq va majburiyatlar, agar alohida ko'rsatilmagan bo'lsa, oflayn va onlayn ta'lim shakllariga birdek tatbiq etiladi.

9.8. Mazkur Oferta o'zbek, rus va ingliz tillarida e'lon qilinadi. Matnlar o'rtasida tafovut yuzaga kelgan taqdirda o'zbek tilidagi matn ustun hisoblanadi.

9.9. Shartnomada nazarda tutilmagan masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hal qilinadi.

10. O'QUV MARKAZI REKVIZITLARI

_____ («Mega School» o'quv markazi), STIR: _____; IFUT: _____; H/r: _____, _____, MFO: _____. Yuridik manzil: _____. Bosh filial: Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 26. Tel.: +998 97 720 12 22. Elektron pochta: _____. Sayt: _____. Telegram: t.me/megaschooluz. O'quv markazi faoliyatini _____ asosida amalga oshiradi.

Ofertaning mazkur tahriri 2026-yil 15-sentabrdan boshlab amal qiladi.